



## IJTIMOIIY SOHANI MOLIIYALASHTIRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA BUDJET-SOLIQ SIYOSATINING ROLI

**Imamova Gulshan**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi  
"O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari  
va muammolari" ilmiy tadqiqot markazi*

*ORCID: 0009-0006-8825-7346*

*[gulshanimamova1211@gmail.com](mailto:gulshanimamova1211@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ijtimoiy sohani moliyaviy ta'minlash masalalari ko'rib chiqilgan. Tadqiqotda ijtimoiy sohaning iqtisodiy mohiyati, uni moliyalashtirish manbalari va davlat budjeti tizimidagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, ijtimoiy xarajatlarni shakllantirishda budjet-soliq siyosatining ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida tavsifiy hamda ekonometrik usullardan foydalanildi. Ko'p omilli regressiya modeli asosida soliq tushumlari, budjet taqchilligi va inflyatsiya ko'rsatkichlarining ijtimoiy xarajatlar ulushiga ta'siri baholandi. Olingan natijalar ijtimoiy sohani moliyalashtirish samaradorligini oshirishga oid ayrim xulosalar va amaliy tavsiyalarni shakllantirish imkonini berdi.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy sohani moliyalashtirish, budjet-soliq siyosati, davlat budjeti, soliq tushumlari, budjet taqchilligi, ijtimoiy xarajatlar, moliyaviy samaradorlik, inflyatsiya.

## РОЛЬ БЮДЖЕТНО-НАЛОГОВОЙ ПОЛИТИКИ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ФИНАНСИРОВАНИЯ СОЦИАЛЬНОЙ СФЕРЫ

**Имамова Гульшан**

*Научно-исследовательский центр  
«Научные основы и проблемы развития экономики Узбекистана»  
при Ташкентском государственном экономическом университете*

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются вопросы финансового обеспечения социальной сферы. В исследовании раскрыта экономическая сущность социальной сферы, её источники финансирования и место в системе государственного бюджета. Также проанализирована роль бюджетно-налоговой политики в формировании социальных расходов. В процессе исследования использованы описательные и эконометрические методы. С помощью многофакторной регрессионной модели оценено влияние налоговых поступлений, бюджетного дефицита и инфляции на долю социальных расходов. Полученные результаты позволили выработать некоторые научные выводы и практические рекомендации, направленные на повышение эффективности финансирования социальной сферы.

**Ключевые слова:** финансирование социальной сферы, бюджетно-налоговая политика, государственный бюджет, налоговые поступления, бюджетный дефицит, социальные расходы, финансовая эффективность, инфляция.

## THE ROLE OF FISCAL POLICY IN ENHANCING THE EFFICIENCY OF SOCIAL SECTOR FINANCING

**Imamova Gulshan**

*Scientific Research Center "Scientific Foundations and Problems of the Development of the Economy of Uzbekistan" under Tashkent State University of Economics*

**Abstract.** *This article examines the issues of financial support for the social sector. The study outlines the economic essence of the social sphere, its main funding sources, and its place within the state budget system. The role of fiscal policy in shaping social expenditures and supporting social development is also analyzed. The research employs both descriptive and econometric methods. Using a multiple regression model, it evaluates the impact of tax revenues, budget deficits, and inflation indicators on the share of social expenditures. The findings made it possible to develop certain scientific conclusions and practical recommendations aimed at improving the efficiency of social sector financing.*

**Keywords:** *social sector financing, fiscal policy, state budget, tax revenues, budget deficit, social expenditures, financial efficiency, inflation.*

### **Kirish.**

Bugungi kunda ijtimoiy sohani moliyalashtirish va uning samaradorligini oshirish masalasi davlat iqtisodiy siyosatining muhim qismi hisoblanadi. Ijtimoiy harajatlar nafaqat aholining turmush darajasini belgilaydi, balki inson kapitalining shakllanishi va milliy iqtisodiyotning rivojlanishiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, ijtimoiy harajatlar samaradorligini oshirish masalasida budjet- soliq siyosati muhim o'rin tutadi. O'zbekiston Respublikasida bu sohani moliyalashtirish asosan davlat budjetidan amalga oshiriladi.

"Davlat budjeti to'g'risida"gi yillik qonunlarga muvofiq, budjet xarajatlarining muhim qismi ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya va aholini qo'llab-quvvatlash sohalariga yo'naltiriladi. S'onggi yillarda budjet xarajatlarining 50% dan yuqori qismi ijtimoiy sohalarga ajratilayotgani mazkur yo'nalish davlat siyosatida ustuvor ahamiyatga ega ekanligini bildiradi (Budjetnoma, n.d.).

Shu bilan birga, davlat tomonidan aholining turmush darajasini oshirish, ularni sifatli xizmatlar bilan ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar doimiy ravishda amalga oshirilmoqda. "O'zbekiston — 2030" strategiyasida ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya tizimini rivojlantirish orqali inson kapitalini mustahkamlash va aholining farovonligini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan (Farmon, 2023).

Shunga qaramasdan, ijtimoiy sohaga ajratilayotgan harajatlarga ehtiyojning ortib borishi, uning samaradorligini oshirishni takomillashtirishni talab qiladi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev 2026-yil 26-dekabr kuni Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida: "Asosiy maqsadimiz – odamlarimizni doimiy daromadli qilishdan iborat. Puli bor odam yaxshi kiyinish va ovqatlanishga, sifatli ta'lim va malakali tibbiy xizmatdan foydalanishga, mazmunli dam olishga, bir so'z bilan aytganda, farovon yashashga intiladi.", — deb ta'kidlagan.

Shundan kelib chiqib, davlat rahbari tomonidan songgi yillarda fiscal barqarorlikni mustahkamlash, budjet nazoratini kuchaytirish va ijtimoiy harajatlarning manzilliligi va natijadorligini oshirish ustuvor vazifalar qatorida belgilab berilgan (Murojaatnoma, n.d.).

Bu esa budjet-soliq siyosatiga oid muammolarni hamda ijtimoiy sohaning funksiyalarini ilmiy jihatdan tahlil qilish va ularning yuzaga kelish sabablarini aniqlash zaruratini yanada oshiradi.

### **Adabiyotlar sharhi.**

OECD ma'lumotlariga ko'ra, soliqlar mamlakatlar daromadining asosiy qismini tashkil etadi va ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirishga xizmat qiladi (oecd.org, n.d.).

World Bank fiskal siyosatni ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda asosiy vosita sifatida ko'radi (worldbank.org, n.d.).

Dustmirzayev (2025) o'z tadqiqotida fiskal siyosatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga ta'sirini tahlil qilgan. Tahlilda budjet xarajatlari tarkibi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni statistik ma'lumotlar asosida baholagan. Tahlil natijalariga ko'ra, ijtimoiy sohaga xarajatlar iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi asoslangan.

Nusratullayev (2024) O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida soliq siyosatining o'rnini kompleks yondashuv asosida tahlil qilgan. Tadqiqotda mazkur siyosatning iqtisodiy o'sish, tadbirkorlik faolligi va daromadlarni qayta taqsimlash jarayonlariga ta'siri ko'rib chiqilgan.

Qo'ldoshev va Berdiqulova (2025) O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan budjet-soliq siyosatining iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishdagi o'rnini tahlil qilgan. Mualliflar soliq tizimini takomillashtirish, fiskal shaffoflikni oshirish, soliq yukini bosqichma-bosqich kamaytirish hamda ijtimoiy yo'naltirilgan budjet siyosatini amalga oshirishning ahamiyatini yoritib bergan.

Ijtimoiy sohaga ajratilayotgan budjet mablag'lari samaradorligini oshirish masalalari bo'yicha Xushmurotov (2025)ning tadqiqot natijalariga ko'ra, sog'liqni saqlash va ta'lim yo'nalishlarida aniq ko'rsatkichlarni belgilash hamda ularning ijrosini monitoring qilish budjet xarajatlarning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, Talapova (2024) o'z dissertatsiya tadqiqotida ijtimoiy investitsiyalar tushunchasining metodologik asoslarini ishlab chiqib, ijtimoiy sohani moliyalashtirish tizimining nazariy jihatdan yetarli emasligini ta'kidlab o'tgan. Muallifning fikriga ko'ra, mahalliy budjetlarning ro'lini kuchaytirish va ijtimoiy investitsiya jarayonini takomillashtirish ijtimoiy soha samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xorijiy olimlardan Flurim va Agustin (2024)ning tadqiqotlarida ijtimoiy soliq imtiyozlari deyarli barcha mamlakatlarda mavjudligi aniqlangan. Ijtimoiy soliq imtiyozlari o'rtacha YaIMning 1 foiziga teng, ayrim mamlakatlarda 6 foizgacha yetishi mumkin. Tadqiqotda rivojlangan davlatlar ijtimoiy himoya mexanizmlarini asosan daromad solig'i tizimi orqali amalga oshirishi, past va o'rta daromadli davlatlarda esa QQS orqali sog'liqni saqlash va ta'lim sohasida imtiyozlar berilishi aniqlangan.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Tadqiqotda ijtimoiy sohani moliyalashtirishga ta'sir etuvchi budjet va soliq omillarini baholash maqsad qilingan. Tadqiqot metodologiyasi tavsifiy va ekonometrik usullarni o'z ichiga oladi. Avval mavjud statistik ma'lumotlar tahlil qilindi va asosiy ko'rsatkichlarning dinamikasi tavsiflandi. So'ngra, ko'p omilli regressiya modeli tuzilib, soliq tushumlari, budjet taqchilligi va inflyatsiyaning ijtimoiy xarajatlar ulushiga ta'siri baholandi. Hisob-kitoblar Microsoft Excel dasturining regressiya vositasi yordamida amalga oshirildi. Tadqiqot doirasida olingan natijalar asosida xulosalar shakllantirildi va amaliy tavsiyalar berildi.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Ijtimoiy sohalarni moliyaviy ta'minlash masalalari zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarda keng ko'rib chiqilmoqda. Xususan, soliq yukini ijtimoiy qatlamlar o'rtasida optimal taqsimlash hamda yangi iqtisodiyot sharoitida budjet daromadlarini shakllantirish mexanizmlari dolzarb yo'nalishlar sifatida o'rganilmoqda.

## 1-jadval


## 2018–2024 yillarda ijtimoiy xarajatlar va budget-soliq ko'rsatkichlari dinamikasi

Yil	Ijtimoiy soha harajatlari (YaIM ga nisbatan %) SE	Soliq tushumlari (YaIM ga nisbatan %) TR	Budjet taqchilligi (YaIM ga nisbatan %) DEF	Inflatsiya (yillik %) INF
2018y	8.67%	14.06%	0.44%	14.30%
2019y	10.25%	15.79%	0.94%	15.20%
2020y	10.53%	16.01%	1.59%	11.10%
2021y	10.68%	16.05%	2.72%	10%
2022y	11.30%	15.33%	3.34%	12.30%
2023y	10.88%	14.62%	3.91%	8.80%
2024y	9.92%	14.04%	2.38%	9.80%

*Manba:* rasmiy statistik ma'lumotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda O'zbekistonda davlat budjetidan ijtimoiy sohaga sezilarli darajada yuqori miqdorda xarajatlar amalga oshirilgan. Hisob-kitoblarga ko'ra, 2018-2024 yillarda ijtimoiy xarajatlarning YaIMga nisbati o'rtacha 10 foiz atrofida shakllangan. Ushbu ko'rsatkich deyarli barcha yillarda o'sish tendensiyasini ko'rsatgan lekin, oxirgi ikki yilda xarajatlar nisbati biroz kamaygan. Soliq tushumlari dinamikasi ham dastlab o'sish, keying yillarda esa pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Budjet taqchilligi esa ijtimoiy xarajatlar oshgan davrlarda ko'tarilgan, bundan kelib chiqadiki, davlat ijtimoiy sohani moliyalashtirishda defitsit mexanizmidan foydalangan. Mazkur dinamik o'zgarishlar fiskal siyosatning makroiqtisodiy sharoitlarga moslashuvchanligini ko'rsatadi.

Inflatsiya darajasi tahlil qilingan yillarda sezilarli tebranishlar yuz bergan. Dastlabki yillarda inflatsiya yuqori darajada bo'lgan, 2020 yilda esa, 11% ga kamaygan. So'nggi yillarga kelib nisbatan barqarorlashganini ko'rishimiz mumkin.



## 1-rasm. Ijtimoiy xarajatlar va budget-soliq ko'rsatkichlari dinamikasi

*Manba:* rasmiy statistik ma'lumotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Ushbu grafik dinamik ko'rsatkichlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni vizual tarzda tasdiqlaydi. Ijtimoiy xarajatlar va soliq tushumlari o'rtasida ma'lum darajada musbat bog'liqlik mavjudligi kuzatiladi, bu esa keyingi ekonometrik tahlil uchun asos yaratadi.

Ijtimoiy sohani moliyalashtirishga budget-soliq omillarining ta'sirini aniqlash maqsadida 2018-2024 yillar kesimida ko'p omilli regressiya modelidan foydalanildi. Quyida formula keltirilgan:

$$SE=0.0017+0.508(TR)+0.650(DEF)+0.089(INF)$$

Bu yerda:

**SE** — ijtimoiy soha xarajatlarining YAIMga nisbati (%);

**TR** — soliq tushumlarining YAIMga nisbati (%);

**DEF** — budget taqchilligining YAIMga nisbati (%);

**INF** — yillik inflyatsiya darajasi (%);

Model natijalariga ko'ra, tanlangan omillar ijtimoiy soha xarajatlarining YaIMga nisbatan ulushini izohlashda muhim ahamiyatga ega. Determinatsiya koeffitsienti ( $R^2 = 0,947$ ) shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy xarajatlar ulushidagi o'zgarishlarning katta qismi soliq tushumlari, budget taqchilligi va inflatsiya ko'rsatkichlari bilan bog'liq.

$R^2$  ko'rsatkichi (0,894) ham modelning moslashuvi qoniqarli ekanini bildiradi. Bu natija modelda tanlangan omillar tasodifiy emasligini ko'rsatadi. F-statistikaning ahamiyatlilik darajasi ( $p = 0,020$ ) esa model umumiy jihatdan statistik jihatdan ishonchli ekanini tasdiqlaydi.

Bu yerda:

$R^2$  — determinatsiya koeffitsienti;

**F-stat** — modelning umumiy ahamiyatlilik ko'rsatkichi;

**p-qiymat** — parametrlarning statistik ahamiyatlilik darajasi.

Modelning determinatsiya koeffitsienti ( $R^2 = 0.947$ ) yuqori darajada bo'lib, ijtimoiy xarajatlar o'zgarishining 94,7 foizi tanlangan omillar bilan izohlanishini ko'rsatadi. Normallashtirilgan  $R^2$  (0.894) ham modelning moslashuv darajasi yuqori ekanligini tasdiqlaydi. F-statistikaning ahamiyatlilik darajasi ( $p = 0.020$ ) model umumiy jihatdan statistik ahamiyatli ekanligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, modelda qoldiq dispersiyasining pastligi natijalarning barqarorligini ko'rsatadi. Olingan ko'rsatkichlar tanlangan omillar ijtimoiy sohani moliyalashtirish dinamikasini izohlashda yetarli darajada tushuntiruvchi kuchga ega ekanligini tasdiqlaydi.

2-jadval

Ijtimoiy xarajatlar regressiya natijalari (2018–2024)

O'zgaruvchi	Koeffitsient	p-qiymat
<i>TR</i>	0.508	0.029
<i>DEF</i>	0.65	0.019
<i>INF</i>	0.089	0.324
$R^2$	0.947	
<i>F-stat (p)</i>	17.89 (0.020)	

**Manba:** rasmiy statistik ma'lumotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Olingan natijalarga ko'ra, ijtimoiy soha xarajatlari ulushining shakllanishida fiskal omillar hal qiluvchi ro'l o'ynaydi. Soliq tushumlari ijtimoiy sohani moliyalashtirish bilan bevosita bog'liq ekanligi aniqlandi. Bu holat davlat daromad bazasining kengayishi ijtimoiy sohani moliyalashtirishni barqarorlashtirishda muhim asos ekanligini bildiradi.

Budjet taqchilligi koeffitsienti ham ijobiy natija ko'rsatgan. Bu ayrim davrlarda ijtimoiy soha xarajatlari qo'shimcha qarz yoki defitsit mexanizmlari hisobiga qo'llab-quvvatlanganini bildiradi.

Inflatsiya omili esa ijtimoiy xarajatlar ulushiga sezilarli ta'sir ko'rsatmagan. Bu narxlar darajasidagi o'zgarishlar ijtimoiy xarajatlar dinamikasining YaIMdagi ulushini bevosita belgilamasligini anglatadi.

Umuman olganda, model natijalari ijtimoiy sohani moliyalashtirish jarayoni makroiqtisodiy muhitdan ko'ra fiskal siyosat ko'rsatkichlari bilan kuchliroq bog'liqligini ko'rsatadi. Bu esa budjet-soliq siyosatini takomillashtirish ijtimoiy xarajatlar barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi.

Shuni ta'kidlash lozimki, tadqiqot 2018–2024 yillar kesimida mavjud rasmiy ma'lumotlar asosida amalga oshirildi. Kuzatuvlar sonining cheklanganligi natijalarni ma'lum darajada chegaralashi mumkin.

### **Xulosa va takliflar.**

Ijtimoiy sohani moliyalashtirish samaradorligini oshirishda budjet-soliq siyosatining ro'lini o'rganish asosida mazkur maqola doirasida quyidagi xulosa va takliflar shakllantirildi:

Soliq tushumlarining YaIMga nisbatijtimoiy xarajatlar ulushiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bundan kelib chiqadiki, fiskal daromadlarning kengayishi ijtimoiy xarajatlarning oshishiga olib keladi.

Shuningdek, budjet taqchilligi ham ijobiy ta'sir ko'rsatgan, ayrim yillarda ijtimoiy xarajatlar defitsit mexanizmi bilan amalga oshirilgan. Davlat qisqa muddatli fiskal rag'batlantirish siyosatini qo'llagan, lekin, uzoq muddatda bu siyosat ijobiy ta'sir ko'rsatmasligi mumkin. Shu sababli muvozanatli siyosat tanlashga harakat qilinishi lozim.

Inflatsiya ko'rsatkichi ijtimoiy xarajatlarga sezilarli ta'sir o'tkazmadi. Bu esa ijtimoiy xarajatlarning shakllanishi asosan fiskal omillarga bog'liq ekanligini, narxlar darajasiga bevosita bog'liq emasligini ko'rsatadi. Biroq inflatsiya real xarid qobiliyatiga ta'sir etadi, ijtimoiy dasturlarni rejalashtirishda buni inobatga olish kerak bo'ladi.

Ijtimoiy sohani barqaror moliyalashtirish uchun soliq tushumlarining barqaror o'sishini ta'minlash zarur. Buning uchun yashirin iqtisodiyotni qisqartirish hamda soliq bazasini kengaytirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ijtimoiy xarajatlarni barqaror moliyalashtirish uchun budjet taqchilligi mexanizmidan foydalanish mumkin. Lekin, bu usul faqat qisqa muddatda qo'llaniladi. Uzoq muddatli natijaga erishish uchun asosan real daromad manbalaridan foydalanish zarur. Bu usul davlat qarzining ortib ketishini oldini olishga yordam beradi.

Ijtimoiy xarajatlarning samaradorligini oshirish maqsadida natijadorlikka asoslangan budjetlashtirish tamoyillarini keng joriy etish zarur. Har bir ijtimoiy yo'nalish bo'yicha aniq natija ko'rsatkichlarini belgilash hamda resurslarning maqsadli sarflanishini ta'minlash samaradorlikni oshiradi.

Mahalliy budjetlarning daromad bazasini mustahkamlash orqali hududlar kesimida ijtimoiy xizmatlar sifatini yaxshilash mumkin. Hududiy fiskal mustaqillikni kengaytirish va mahalliy daromad manbalarini diversifikatsiya qilish ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

### **Adabiyotlar/Jumepamypa/References:**

Aliu F. va Redonda A. (2024) *Beyond the Budget: A Global Perspective on Social Spending through Tax Expenditures. Social Policy and Society.*

Dustmirzayev B. (2024) *Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga budjet siyosatining ta'siri. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil ilmiy elektron jurnali, (11), noyabr, pp. 111–120.*

Nusratullayev A. (2024) *O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishidagi o'rni. "Yoshlar va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash mamlakatimizda amalga*

*oshirilayotgan islohotlarning muhim omili” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent, pp. 856-859.*

*O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, (2024). Pul-kredit siyosati ko‘rsatkichlari va inflyatsiya ma‘lumotlari.*

*O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, (2025). Oliy Majlisga Murojaatnoma.*

*OECD (2024) Tax policy.*

*Qo‘ldoshev Sh., Berdiqulova M, (2025) O‘zbekiston Respublikasida byudjet-soliq siyosatini amalga oshirish maqsadlari va tamoyillari. Ilm-fan xabarnomasi, 8(1), pp. 875–879.*

*Talapova D. (2024) Ijtimoiy sohalarni moliyaviy ta‘minlash tizimini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha PhD dissertatsiyasi avtoreferati. Namangan davlat universiteti.*

*Vazirlik (n.d.) O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, davlat budjeti ijrosi hisobotlari.*

*World Bank (2024) Fiscal policy.*

*Xushmurotov Z. (2025) Sog‘liqni saqlash va ta‘lim sohasini dasturiy budjetlashtirish tizimini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha PhD dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi.*